

XORIJIY INVESTITSIYALARING MOHIYATI VA IQTISODIYOTDAGI AHAMIYATI.

F. B. Shakirova

Toshkent davlat transport universiteti dotsenti,

Shixnazarov Javohir Jasurbek o‘g‘li

Toshkent davlat transport universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada xorijiy investitsiyalarning ahamiyati, roli va ta’sir etuvchi omillarni ko‘rib chiqilgan. Shuningdek, iqtisodiyotni rivojlantirishda va to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar jalb etish jalb qilish yo‘llari ko‘rib chiqiladi

Kalit so‘zlar: to‘g‘ridan to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar, modernizatsiya, xalqaro mehnat, kapital, moddiy resurslar, chet el korxonalari, yangi tenika va texnologiyalar, raqabotdosh mahsulotlar, investitsion muhit.

Investitsiyalar zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan qurollanish, ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatishning ilg‘or usullarini joriy etish, fan-texnika yutuqlarini hamda inson kapitali imkoniyatlarini tiklashning asosiy vositasi hisoblanadi. Investitsiya jalb etish natijasida yangi korxonalar bunyod etiladi, mavjudlarini texnik va texnologik jihatdan qayta quradi, raqabatdosh tovarlar ishlab chiqaradi, bu o‘z navbatida yangi ish o‘rinlarini vujudga kelishini ta’minlaydi.

Xorijiy investitsiyalarning quyidagi turlari mavjud: kapital, innovatsiya va ijtimoiy investitsiya.

Kapital investitsiya jumlasiga asosiy fondlarni vujudga keltiruvshi va takror ishlab chiqarishga, shuningdek, ishlab chiqarishning boshqa shakllarini ishlab chiqarishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Innovatsiya investitsiyalar jumlasiga texnika va texnologiyalarning yangi avlodini ishlab chiqish va o‘zlashtirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi.

Ijtimoiy investitsiyalar jumlasiga inson salohiyatini, malakasi va ishlab chiqarish tajribasini oshirishga, shuningdek, nomoddiy ne’matlarning boshqa shakllarini rivojlantirishga qo‘shiladigan investitsiyalar kiradi. O‘zbekiston amalga oshirayotgan investitsiya siyosatining asosiy yunalishlari orasida quyidagilarni alohida ta’kidlab ko’rsatish mumkin:

- investitsiya jalb qilish ushun xalqaro me’yorlar va konvensiyalarga mos keladigan, sanoati rivojlangan mamlakatlar investorlari tomonidan tan olinadigan xuquqiy shart-sharoitlarni yaratishga intilish;
- respublikaga jahon darajasidagi texnologiyalarni yetkazib beradigan va iqtisodiyotning zamonaviy tuzilishini vujudga keltirishga yordam beradigan investorlar uchun ochik eshiklar siyosatini izshillik bilan amalga oshirish;
- ishlab chiqarish bilan bog‘liq loyihalarga qaratilgan valyutada o‘zini-o‘zi qoplashni ta’minlaydigan investitsiyalarga ko’maklashish;
- mamlakatning kredit qobiliyatini, O‘zbekistonning birinshi darajali qarz oluvchi mamlakat sifatidagi obro’-e’tiborini qo‘llab-quvvatlash;
- mamlakatning ayrim mintaqalarida ijtimoiy va ekologiya muammolarini hal qilishga qaratilgan investitsiyalarga yordam berish.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, O‘zbekistonda mustaqillik yillarda temir yo‘l transporti kommunikatsiyalarini va infratuzilmasini yanada rivojlantirishga 7,5 milliard dollarlik kapital qo‘yilmalar, shu jumladan, 2,4 milliard dollar miqdorida xorijiy investitsiyalar yo‘naltirildi¹.

Ta’kidlash lozimki, innovatsion iqtisodiyotga o‘tish davrida undagi tarkibiy o‘zgarishlar ham jadallahadi va bu investitsiya faoliyatiga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Mazkur yondashuv quyidagi qoidalardan kelib chiqadi:

¹ <http://mintrans.uz> sayti ma’lumotlari

- investitsiya jarayonini faollashtirish, investitsiya resurslarini iqtisodiy taraqqiyotning ustuvor sohalariga yo‘naltirish;
- investitsiya jarayoniga korxonalar, tashkilotlar, aholi jamg‘armalarini kengroq jalg etish va ulardan mamlakatning iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishining jadal sur’atlarini saqlab qolish ushun foydalanish;
- chet el kapitalining kirib kelishi uchun investitsiya muhitini yanada qulaylashtirib borish.k

Xorijiy investitsiyalar ko‘lamiga qarab xalqaro doiradagi, ya’ni xalqaro investitsiyalar ko‘rinishiga ham ega bo‘ladi. Xalqaro investitsiyalar – jahon mamlakatlari o‘rtasida xarakatda bo‘lgan investitsiyalardir. Investitsiyalarni xorijga shiqarish, ularning mamlakatlar o‘rtasidagi faol harakati zamonaviy jahon xo‘jaligi va xalqaro iqtisodiy munosabatlarning ajralib turuvshi xususiyatlariga aylandi. Investitsiyalarni shetga shiqarish jahon xo‘jaligidagi tovarlarni chetga chiqarish monopoliyasini tugatdi

Portfel investitsiyalar-bu kapitalni xorijiy korxonalar qimmatli qog‘ozlariga(korxona ustav kapitalining 10%dan kam qismini) kiritish shaklida olib chiqib ketish bo‘lib, investorlarga ular faoliyatini bevosita nazorat qilish imkonini bermaydi². Protfel investitsiyalar ancha yuqori likvidlikka ega bo‘lib, harakatchan hisoblanadi.

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalar kapital resurslar va nomoddiy aktivlardan iborat. Birinshi navbatda, ularning quyidagi jihatlariga e’tibor berish lozim: ular aksiya shaklidagi kapital bo‘lishi, xorijiy investor mazkur mamlakatda joylashgan firmanın ulushini (ustav kapitalining 10 foizidan kam bo‘lmagan) sotib olgan bo‘lishi; qayta investitsiyalaruvshi daromadga ega bo‘lishi; filial ishidagi

² А.А.Вахабов, Ш.Х.Хажибакиев, Ш.Г.Муминов. Хорижий инвестициялар. Ўқув қўлланма./и.ф.д., профессор А.В. Вахобовнинг умумий таҳрири остида.-Т.: “Молия”, 2010, 21-б.

qarzlar bosh kompaniyalar va uning filiallari hamda sho'ba kompaniyalar o'rtaida o'zlashtirilgan bo'lishi kerak³

Milliy iqtisodiyotda xorijiy investitsiyalar oqimining ob'ektiv o'zgarishlarga olib keluvchi omillari quyidagilardan iborat: •xalqaro mehnat, kapital, tajriba, texnologiya, moddiy resurslar ta'minoti va taqsimotini vujudga keltiradi; • moliya operatsiyalarining erkinlashuvini va xalqaro kapital ko'chish oqimini tezlashtirishni ta'minlaydi; •millatlararo korporatsiyalarning paydo bo'lishi asosida xalqaro raqobatning kuchayishiga olib keladi. Bu omillar o'z navbatida, iqtisodiy integratsiyani kuchaytiradi, globallashuv jarayonlariga turtki bo'ladi, raqobat sohasidagi milliy siyosatni xalqaro darajadagi siyosat bilan uyg'unlashishini talab etadi va bilimlar ko'lами kengaytirishga zamin yaratadi . TTXI bugungi kunda nafaqat oddiy pul o'tkazmalar, balki moliyaviy va nomoddiy aktivlar, jumladan, texnologiyalar, boshqaruvchilik qobiliyatları, marketing ko'nikmaları ko'rinishida ham kirib kelmoqda⁴ [4].

Quyidagi jadvalda To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtaсидаги о'зига хос фарqlar ko'rsatib berilgan(1-jadval).

1-jadval

**To'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar
o'rtaсидаги о'зига хос фарqlar⁵**

Belgilar	To'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar	portfel investitsiyal
Olib chiqishning asosiy maqsadi	Xorijiy firmani nazorat qilish	Yuqori foyda olish

³ Вдовенко З. Политика промышленного развития в регионе. –М.: Экономист. №3 – 2005 г. –С.67-73.

⁴ Sushama Deshmukh [2012], Effect of FDI on Emploment Generation International Referred Research Journal, [Onlaine] p 28.

⁵ Вдовенко З. Политика промышленного развития в регионе. –М.: Экономист. №3 – 2005 г. –С.27 .

Maqsadga erishish yo'llari	Xorijda ishlab shiqarishni tashkil qilish va yuritish	Yuqori foyda olish
Maqsadga erishish usullari	a) xorijiy firmaga to'liq egalik qilish; b) aksiyalar nazorat paketini sotib olish (XFB ustaviga ko'ra kompaniya aksiyadorlik kapitalining 25 foizidan kam bo'lmasligi kerak)	Xorijiy firma aksiyadorlik kapitalining kamida 25 foizini sotib olish (AQSH, Yaponiya va Germaniyada 10 foiz)
Daromad shakllari	Tadbirkorlik foydasi, divedentlar	Diidentlar, foizlar

To‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning muhim elementlari nomoddiy aktivlar, kiritilgan texnologiyalar, savdo belgilari (brendlari), boshqaruv tajribasi va boshqalardir. Aynan nomoddiy aktivlar u yoki bu kompaniyani bir-biridan farqlash imkonini beradi. To‘g‘ridan-to‘g‘ri va portfel investitsiyalar turli xususiyatga ega hamda uni qabul qiluvshi mintqa iqtisodiyotiga turlicha ta’sir ko‘rsatadi. Qabul qiluvhi hudud uchun to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi quyidagi afzalliliklarga ega:

- iqtisodiy va ilmiy-texnik taraqqiyotni jadallashtirish;
- barqaror moliyalashtirish manbaiga ega bo‘lish;
- ishlab chiqarish fondlarini yangilash va modernizatsiyalash;
- texnologiyalar, boshqaruv ko‘nikmalari, savdo belgilari, patentlar va litsenziyalarning kirib kelishi;
- eksportning diversifikatsiyalashuvi;

- qo'shilgan qiymat ulushi yuqori bo'lgan tarmoqlarda malakali ishchi kuchi ushun afzalliklarning vujudga kelishi;
- tashqi bozorlar bilan aloqalarning kengayishi;
- qabul qiluvshi mintaqqa iqtisodiyoti raqobatbardoshligining oshishi;
- bozor iqtisodiyoti talablariga javob beradigan kadrlarni tayyorlash[8].

To'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar bilan bir qatorda portfel investitsiyalar ham qabul qiluvchi hudud iqtisodiyotiga turlisha ta'sir ko'rsatadi. Buni ularning quyidagi o'zaro qiyosiy tavsifida kuzatish mumkin:

to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalar investorlarga nazorat huquqini beradi, portfel investitsiyalar esa bermaydi;

to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar kompaniya ustav kapitalining faqat 10 foiz va undan ortiq ulushga ega bo'lish imkonini bersa, portfel investitsiyalar 10 foizdan kam ulushga ega bo'lgan holda investitsiya munosabatini amalga oshirish huquqini ifoda etadi;

to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar uzoq muddatli qo'yilmalar hisoblanadi, portfel investitsiyalar esa qisqa muddatlidir;

ayni paytda jahon kapital bozori rivojlanish tendensiyalarining o'ziga xosligi shundaki, ko'pgina institutsional investorlar uzoq muddatli aktivlarni xorijiy kompaniyalarda nazorat huquqi bo'lмаган holda ushlab turishadi, bu jihatdan to'g'ridan-to'g'ri va portfel investitsiyalar o'rtaidagi farq deyarli sezilmaydi.

Kelgusida mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirish uchun xorijiy investitsiyalarni yanada ko'proq jalg qilishda quyidagi ilmiy takliflarga e'tiborni qaratish lozim:

- iqtisodiyotni yanada erkinlashtirish, xususiy mulk, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni taraqqiy ettirish, eksportga ishlaydigan kichik va o'rta korxonalarini ko'paytirish va ularni samarali faoliyat yuritishlari uchun zarur shart-sharoitlarni yaratish va ularni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash tizimini yana davom ettirish;

- chekka hududlarda TTXI jalg etish maqsadida ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish infratuzilmasini rivojlantirishga oid davlat dasturlarini o'z muddatida ijrosini ta'minlash bo'yicha mahalliy hokimiyat vakillik organlari, fuqarolik jamiyati institutlarining vakillari bilan jamoatchilik nazoratini tashkil etish va uni kuchaytirishni yo'lga qo'yish;

- xorijiy sarmoyadorlarni qiziqtiruvchi sohalar, ob'ektlar va joylarni aniqlash va ular to'g'risida ma'lumotlar bazasini shakllantirish hamda iqtisodiy jihatdan manfaatli bo'lgan sohalarga xorijiy investorlarni jalg etish yo'llarini izlab topish;

- tarmoq xususiyati va hududlarni iqtisodiy rivojlanishi va ularning geografik joylashuvini inobatga olgan holda erkin iqtisodiy zonalarni yanada ko'proq tashkil etish orqali TTXI larni jalg qilishni rag'batlantirish;

- xususiy sektorga TTXIIlarni jalg etish bo'yicha kompleks choratadbirlar tizimini ishlab chiqarish va boshqalar.

Xulosa qilib aytganda, yuqoridagi ilmiy takliflarni amaliyotga joriy etish mamlakatimizga TTXI ni jalg etishni yanada faollashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Ushbu holat pirovardida ishlab chiqarishni texnik va texnologik jihatdan uzlusiz yangilab borish, iqtisodiyotda chuqur tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish, sanoatni modernizatsiya va diversifikatsiya qilishni izchil davom ettirish asosida 2030 yilga borib mamlakatimizda YaIM ishlab chiqarishni 2 martaga oshirish vazifasini to'liq hal etishga imkoniyat yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:/ REFERENCES:

1. Юлдашева, С. А., Курбанова, М. Н., & Тураев, Д. Ў. (2023). ИННОВАЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ ПРЕДПРИЯТИЙ АО «НГМК». *Journal of new century innovations*, 23(3), 188-191.
2. Юлдашева, С. А., & Курбанова, М. Н. (2022). РАЗВИТИЕ КОНСОРЦИУМА ОБРАЗОВАНИЯ И ПРОИЗВОДСТВА. *Uzbek Scholar Journal*, 9, 209-213.
3. Shodiyeva, G., Tog'Ayeva, D. A., & Sultonov, B. A. (2022). KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKNI IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI. *Academic research in educational sciences*, 3(5), 610-613.

4. Mardievna, S. G., & Oblokovich, K. S. Methodology for Determining the Role of Family Business in the Economy.
5. Шакирова, Ф. Б. (2022). ИННОВАЦИОН РИВОЖЛАНИШ МОДЕЛЛАРИ ВА УЛАРНИНГ ИҚТИСОДИЙ ЎСИШ БИЛАН АЛОҚАДОРЛИГИ. *Journal of new century innovations*, 17(1), 101-105.
6. Shakirova, F. B. (2022). INNOVATIVE DEVELOPMENT MODELS AND THEIR RELATIONSHIP WITH ECONOMIC GROWTH. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(10), 662-665.
7. Shakirova, F. B. (2022). ТЕМИР ЙЎЛ ТРАНСПОРТИ СОҲАСИДАГИ ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЧИЛИК МУНОСАБАТЛАРИ. *Journal of new century innovations*, 16(3), 82-85.
8. Шакирова, Ф. Б. (2022). ТРАНСПОРТ СОҲАСИДА ДАВЛАТ-ХУСУСИЙ ШЕРИКЛИК МЕХАНИЗМЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ХОРИЖИ ТАЖРИБАСИ. *Journal of new century innovations*, 15(3), 66-74.
9. Shakirova, F. B., & Sattorova, S. B. (2022). “О ‘ZBEKISTON TEMIR YO ‘LLARI” AJ FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISHDA XALQARO HAMKORLIK FAOLIYATI. *Eurasian Journal of Academic Research*, 2(9), 4-9.
10. Shakirova, F. B. (2015). Development of Economy in Uzbekistan on the Basis of Innovation Activity (Uzbekistan, Tashkent). *Problems of Modern Economics*, (3), 55.
11. Mardiyevna, S. G., & Anvarovna, E. D. (2022). MECHANISMS FOR IMPROVING THE EFFICIENCY OF FAMILY BUSINESSES IN THE DIGITAL ECONOMY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(11), 206-211.
12. Shadieva, G. M., & o‘g‘li Isoqulov, Z. S. (2022). WAYS TO REDUCE POVERTY. *Galaxy International Interdisciplinary Research Journal*, 10(12), 957-962.
13. Усмонова, М. (2022). Imkoniyati cheklangan bolalarni o ‘qitishda texnologiya fanining dolzarbligi. Современные тенденции инновационного развития науки и образования в глобальном мире, 1(4).